

OILA VA NIHOHGA BO'LGAN MUNOSABAT MENTALITETNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA.

*O'zbekiston Milliy Universiteti
Tarix fakulteti 2-kurs magistranti
Sirliboyeva Gulrux.
sirliboyevagulrux@gmail.com*

ANNOTATSIYA.

Ushbu ilmiy maqolada mentalitet tushunchasi va uning paydo bo'lishi haqida yozilgan. Shuningdek, mentalitetimizning tarkibiy qismini tashkil etgan oila va nikoh munosabatlari misolida o'zbek mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mentalitet, o'zbek mentaliteti (o'zbek xalqining psixologik qiyofasi), o'zbek oilasi.

Kirish.

Bu maqola Jizzax viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlar, so'rovnoma natijalari va turli adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida yozilgan.

Tarixiy adabiyotlardan ma'lumki, mentalitet atamasi fransuzcha “mentalite” so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida “dunyoni tushunish” yoki olamni anglashda o'ziga xoslik ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu termini turli mutaxassislar turlicha talqin qilishadi. “Mentale” atamasini birinchilardan bo'lib ilmiy iste'molga kiritgan olim fransuz etnologiyasi Levi-Bryul hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida “mentallik” kategoriyasi nafaqat muayyan bir etnik guruh yoki ijtimoiy uyushmaning fikrlash tarzidagi o'ziga xoslikni tavsiflashda, balki shu bilan birga ma'lum bir tarixiy davrda ularning namoyon bo'lishini izohlash jarayonida ham qo'llanila boshlangan. Bu so'z fransuzcha “mentalite” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uni boshqa tillardagi muqobilini topish qiyin, faqat mazmun jihatdan rus tilidagi “meroponimaniye” dunyoqarash so'ziga to'g'ri keladi¹. Dunyodagi har bir millatning, shu jumladan, o'zbeklarning ham aqliy, ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlari doirasida shakllangan. Har bir xalqning mentaliteti, boshqacha aytganda, milliy o'ziga xosliklari uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnav, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi. Biror xalqning urf-odatlarini, marosimlarini o'zida shu xalqning milliy mentalitetini aks ettiradi. Aynan mana shu urf-odatlardagi o'ziga xosliklar mentalitetning tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Xususan, oila va nikohga bo'lgan munosabat, shuningdek, bu bilan bog'liq urf-odatlar o'zbek xalqi milliy mentalitetining muhim tarkibiy qismidir, chunki urf-odatlar mentalitet asosida

¹ Куронов М. Ўбек характери ва миллий гоёя. Тошкент-2005.

shakllanadi. Misol uchun o'zbek xalqi boshqa xalqning urf-odatlarini qabul qilolmasligi ham milliy mentalitetga to'g'ri kelmasligi sabablidir.

Asosiy qism.

Oila va nikoh munosabatlari o'zbeklar ongida muqaddas sanalib, ular baxtni tashkil qiladi. O'z navbatida, o'zbeklar uchun nikoh asosida oilali bo'lish, unda esa sevgi tuyg'usining bo'lishi va farzandlarning borligi baxt sanaladi, ya'ni o'zbek xalqi baxtni aynan shular bilan bog'laydi². O'zbek oilalarida farzand oila mustahkamligini ta'minlovchi bosh omillardan biri sifatida qaraladi. O'zbek oilalaridagi ajrimlarning sabablaridan biri bu farzandsizlikdir.

Shundan kelib chiqib, yoshlarga o'zbek mentalitetidan kelib chiqib, farzandsizlik tufayli ajrashishni qanchalik to'g'ri deb o'ylaysiz deya savol berilganda, 66.6% to'g'ri emas, 23.3% bu holat hayotimizda ko'p uchraydi, faqat 3.3% yoshlar bu to'g'ri farzandsiz oila bo'lmaydi deyishgan. 6.6% yoshlar o'z fikrlarini bildirishgan³. Xususan, ular farzandsizlik tufayli ajrashish to'g'ri emasligini, oilani saqlab qolishni boshqa yo'llarini topish kerakligini takidlashgan. Misol uchun farzand asrab olish, qarindoshlarini farzandlarini farzandlikka olish kabi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Jizzax viloyati yoshlarining farzandsizlik tufayli oilaning buzilishiga munosabati salbiy. Ammo, katta avlod vakillari farzand asrab olishni ko'p ham yoqlamaydi, ular o'z farzandining nasli davom etishini xohlashlarini shuning uchun sabr bilan kutish kerakligini qayd etishgan. Umuman olganda, oilaning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri naslni davom ettirishdir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, aholi soni muayyan ko'rsatkichda turishi uchun har 100 oilaga 260 ta bola to'g'ri kelishi kerak. Aniqrog'i, 100 oiladan 60 tasi 3 tadan 40 tasida 2- 1 tadan bola bo'lishi lozim. Demografik olimlar hisoblariga ko'ra, agar har bir oila bittadan farzand ko'rsa, sakkizinchi avlodga kelib, ya'ni 200 yildan keyin bu xalq millat tariqasida yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan⁴. Bu ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki, mentalitetimizga xos bo'lgan bolajonlik, farzandsiz oilaning to'laqonli oila bo'lmasligi haqidagi qarashlari jamiyat uchun ham ahamiyatlidir. Bu masalaga yana boshqa tomondan yondoshadigan bo'lsak, o'zbek xalqi farzand voyaga yetkazish orqali o'zining keksalik davri uchun zamin yaratadi. Chunki farzand katta qilish, uni uylantirish, keksayganda farzandlar ardog'ida bo'lish har bir o'zbekning eng chiroyli orzusidir. Shuning uchun ham har bir o'zbek oilasida farzand bo'lishi asosiy masaladir. O'rta Osiyo hududini etnografik jihatdan tadqiq qilgan sovet davri tadqiqotchilari ham o'zbek oilasining shu kabi xususiyatlarni aytib o'tishgan. Xususan, Ostraumov shunday ma'lumot keltiradi:

² Расулова З.А, Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси.: Тарих фан.

док...дис. автореф. – Тошкент, 2005. -17 б

³ Dala tadqiqotlari. Jizzax shahri. 2022-yil.

⁴ Отаҳўжаев Ф.М. Оила ҳуқуқи / (Оммабоп юридик маълумотнома). – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 14

“Toshkent aholisi oilalari ko’p vaqtini birga o’tkazishadi, va ko’plab yig’inlar tashkillashtirishadi. Ular asosan bayramlarda bir-birlarinikiga tashrif buyurishadi, shuningdek, “jura” deb nomlanuvchi kichik doira a’zolari tomonidan o’z navbatida uyushtirilgan maxsus kechalarda yig’ilishadi. Turli oilaviy marosimlar, xususan, farzand tug’ilishi, uning sunnat qilinishi, turmushga chiqishi kabi jarayonlarda katta ziyofat uyushtiradilar, bunday marosimlarda barcha oila vakillari ishtirok etadi⁵. O’zbek oilalarida bunday yig’inlar bugungi kunda ham ko’plab tashkillashtiriladi. Bu jarayonlar oilada ulg’ayayotgan yosh avlodni shakllanishiga ham o’z ta’sirini ko’rsatadi, ya’ni ularda ham mentalitetga xos bo’lgan xususiyatlar shakllana boshlaydi. Avallari oilalar juda katta bo’lib, jamoa asosida yashab kelganlar. O’zbek oilasi ornomusli, kuchli oiladir. Shuning uchun u o’zining milliy qiyofasini yo’qotmagan holda butun oilaning sha’ni, obro’sini saqlash uchun mas’uliyat bilan ish tutadi. Er oila posboni, uning boquvchisi hisoblansa, xotin esa uning ko’rki, fayz-u barakatidir. Oilaning bu xususiyati azaldan mavjud bo’lgan va bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Shuningdek, o’zbek oilalarida ota-onalar farzandlarini ulg’aytiradi va ko’p hollarda uy-joyli qilishadi. Bu narsa konstitutsiyamizda ham belgilab qo’yilgan. Xususan, 64-moddada Ota-onalar o’z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar deb yozib qo’yilgan. Garchand, konstitutsiyada voyaga yetgunga qadar deyilgan bo’lsada, ko’p hollarda farzandlar voyaga yetgandan so’ng ham ota-onlari bilan birga yashashadi. Oilaviy munosabatlardagi bu xususiyat boshqa millat vakillari tomonidan ajablanarli holat sifatida baholanadi. Negaki, dunyoning ko’pgina xalqlarida farzandlar voyaga yetgandan so’ng mustaqil hisoblanib ota-onalaridan alohida yashay boshlaydilar. Aynan mana shu masala yuzasidan yoshlarni fikri bilan qiziqib ko’rdik.

Farzandlarni voyaga yetgandan so’ng ham ota-ona qarmog’ida yashashga qanday qaraysiz degan savolga yoshlarning 26.6% i ijobiy, 16.6% i salbiy, 16.6% i boqimanda bo’lib yashash yaxshi emas, 40% i bu boqimandalikka kirmaydi deb fikr bildirishgan⁶. So’rovnoma natijalaridan shu narsa aniq bo’ldiki, bu holatni ko’pchilik yoshlar salbiy baholashmagan ya’ni boqimandalik deb izohlashmagan.

Bu odatni boqimandalik deb baholovchi ayrim respondentlar o’z fikrini quyidagicha ifodaladi: “voyaga yetgan bo’lsada ota-onasi bilan yashashda davom etadiganlar, ayniqsa o’g’il bollar ota-onasi tomonidan ta’minlanishda davom etadi bu esa ularda boqimandalik kayfiyatini vujudga keltiradi”. Bu masalaga boshqa tomondan yondashadigan bo’lsak, o’zbek mentalitetiga xos bu xususiyat oila ichida mehr-oqibat rishtalarining mustahkamligiga xizmat qiladigan go’zal odatdir. Shu bilan birgalikda, bu odatning mavjudligi farzandlarning o’z ota-onalari oldidagi burchlari bilan ham

⁵Остраумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Ташкент. типо-литография торг.дома. Ф и Г. Бр. Каменские. 1896. -С.67.

⁶ Dala tadqiqotlari. Jizzax shahri. 2022.

bog'liq tomonlari bor. Ota-onaga g'amxo'rlik qilish, o'zbeklarda muqaddas burch sanaladi. Shuning uchun oilalarning katta qismini kichik oilalar tashkil etadi, ular orasida turmush o'rtoqlar va ularning farzandlaridan tashqari, turmush o'rtoqlardan birining ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari ham bor. 1979 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda er-xotinning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham bo'lgan oilalarning salmog'i 31,6% (respublika umumiy aholisi soniga o'rtacha)⁷.

Xulosa.

O'zbek oilasi mehr-oqibatlilik, qarindosh-urug'chilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatlilik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Oilaga sharqona, o'zbekona sodiqlik, o'tgan yetti pushtini bilish, ota-ona, qarindosh-urug', keksalarga hurmat, yoshlarga mehribonlik, oila a'zolari, er-xotin va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi uning o'ziga xos xususiyatlaridir. Aynan mana shu o'ziga xos xususiyatlar o'zbek mentalitadini o'zida namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Куронов М. Ўзбек характери ва миллий гоё. Тошкент-2005.
2. Расулова З.А, Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси.: Тарих фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 2005.
3. Отахўжаев Ф.М. Оила ҳуқуқи / (Оммабоп юридик маълумотнома). – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Остраумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Ташкент. типо-литография торг.дома. Ф и Г. Бр. Каменские. 1896.
5. Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Ташкент: Фан, 1989.
6. Dala tadqiqotlari.

⁷ Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 26.